

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ULUG'BERDIEVA ZIYADA XOTAMOVNA

**MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITLARIDAN AMMONIY VA KALSIY
POLIFOSFATLARINI OLIH TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Ulug‘berdiyeva Ziyada Xotamovna

Markaziy Qizilqum fosforitlaridan ammoniy va kalsiy polifosfatlarini olish
texnologiyasini yaratish. 5

Улугбердиева Зияда Хотамовна

Разработка технологии получения полифосфатов аммония и кальция
из фосфоритов Центральных Кызылкумов. 21

Ulugberdieva Ziyada Khotamovna

Development of technology for obtaining ammonium and calcium
polyphosphates from phosphorites of Central Kyzylkum. 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works. 42

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ULUG'BERDIEVA ZIYADA XOTAMOVNA

**MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITLARIDAN AMMONIY VA KALSIY
POLIFOSFATLARINI OLIH TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/T867 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzakulov Xoltura Chorievich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy apponentlar:

Seytnazarov Atanazar Reypnazarovich

texnika fanlari doktori, professor

Sherquziev Doniyor Shermatovich

texnika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli Ilmiy kengashning « 15 » yanvar 2025 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90; e-mail: ionx@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (47 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 25 » dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil « 23 » dekabrda 47 - raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH ((PhD) doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligida foydalanayotgan yerlarning hosildorligi kamayib ketishi tufayli fosforli o'g'itlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Yuqori sifatli fosfat xomashyosining yetishmasligi va termik fosfor kislotasi (TFK) mavjud emasligi muammoni yanada kengaytiradi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun fosforli o'g'itlarning ozuqaviy tarkibiy qismlari konsentratsiyasini va foydali ish koeffitsientini oshirish zarurdir. Buning uchun, tarkibida fosfor polimer shaklda bo'lgan polifosfat tuzlarini olish zarurati mavjud. Chunki polifosfatlarning sekin gidrolizlanishi sababli o'zlashuvchan fosfor davomli ta'sirga ega bo'ladi va o'simliklar tomonida o'zlashtirilish koeffitsiyenti yuqori bo'ladi. Shuning uchun, ekstraksiya fosfor kislotasidan (EFK) quyipolimerlangan suvda eruvchan kalsiy polifosfati (QPSEKPF) hamda quyipolimerlangan suvda eruvchan ammoniy polifosfatlarini (QPSEAPF) ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida kalsiy, ammoniy, natriy va kondensatsiyalangan polifosfatlarni olish bo'yicha ilmiy –tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, apatit va fosforitlardan olingan EFKni yuqori konsentratsiyalargacha bug'latish; kondensirlangan QPSEKPF va QPSEAPFni ishlab chiqarishda energiya xarajatlarini kamaytirishga olib keladigan jarayonning maqbul texnologik omillarini o'rnatish; bir mahsulotda bir necha turdagi polishakldagi ozuqa komponentlarini tutgan polifosfat o'g'itlarini olish jarayonini o'rganish; konsentrlangan EFKni gaz holatidagi ammiak bilan neytrallashtirish jarayonini takomillashtirish; fizik-kimyoviy va tovar xossalari yaxshilangan va yuqori miqdorda suvda eruvchan shakldagi ozuqa komponentlarini tutgan polifosfat o'g'itlarini olishning energiya va resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoda.

Respublikamizda mahalliy fosfat xomashyosidan olingan EFKdan turli konsentratsiyadagi fosforli o'g'itlar va toza fosfat tuzlarini olish sohasida olimlarimiz tomonidan keng miqyosda innovatsion ishlanmalga oshirilmoqda. Respublikamizda so'ngi yillarda fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish, import o'rnini bosadigan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va chindisiz texnologiyalar joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2026-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish"¹ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, mahalliy xomashyolar asosida past haroratli suvda eriydigan kalsiy va ammoniy polifosfatlarini ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28- yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

to'g'risida»gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3-apreldagi PQ-4265 sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28-dekabrda PQ-4937 sonli «O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-fevraldagi PQ-4992 sonli «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilgan darajasi. Nashr etilgan adabiyot manbalarida turli xil konlar fosfat xomashyolarining kimyoviy va mineralogik tarkiblari o'rganish, apatitlar, boyitilgan va past konsentratsiyali fosforitlardan EFK olish va ular asosida fosforli o'g'itlar, polifosfat tuzlari olishga bag'ishlangan. Bu borada, ilmiy izlanishlar X.W.Wang, G.X.Chu, A.B.Bekturov, D.Z.Serazetdinov, M.E.Pozin, V.F.Karmishov, B.A.Dmitrevskiy, S.P.Kachetkov, D.L.Grishin, A.A.Hanna, D.Touabia, A.A.El-Asmy, H.M.Serag, V.F.Iskulov, A.A.Kiselev va boshqa yetakchi olimlarning ilmiy maktablari tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda mahalliy xomashyolardan EFK, orto- va polifosfat shaklidagi oddiy va murakkab fosforli o'g'itlar, fosfor kislotasini toza tuzlarini olish bo'yicha bir qator tadqiqotlar B.M.Beglov, A.T.Zdukos, Sh.S.Namazov, B.D.Abdullayev, A.U.Erkayev, X.Ch.Mirzakulov, E.V.Sxay, X.M.Kanoatovlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Ammo, olingan natijalarga qaramasdan, past haroratli suvda eruvchan polifosfatlarni olishning tavsiya etilayotgan usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun MQ fosforitlarini turli harorat va EFK me'yorlar sarfida kislotali-termik qayta ishlash jarayonida fizik-kimyoviy o'zgarishlari bo'yicha tizimli va chuqur tadqiqotlar olib borilmagan. Tarkibida suvda eruvchan polishakldagi kalsiy, fosfor va ammoniyli azotini tutgan birikmalar olish uchun jarayonning maqbul texnologik omillarini aniqlash muhimdir. Mahalliy xomashyolardan sekin ta'sir etuvchi ammoniy va kalsiy polifosfatlar ishlab chiqarish texnologiyalari to'g'risida ishonchli va ilmiy asoslangan ma'lumotlar mavjud emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №6-099 «Markaziy Qizilqumning ekstraksiya fosfat kislotasi asosida natriy va ammoniy fosfatlar va polifosfatlarning toza tuzlarini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish» va №IOT-7-14 «Mahalliy fosfatli xomashyolar asosida natriy va ammoniy

fosfatlarning toza tuzlarini tajriba-sanoat texnologiyasini o'zlashtirish va joriy qilish» mavzularidagi amaliy va innovatsion loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuvib kuydirilgan fosfat konsentrati (YuKFK), MQ fosforitidan olingan EFK va gazsimon ammiak asosida ammoniy va kalsiy polifosfatlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

MQ YuKFKdan konsentrlangan EFK olish jarayonini tadqiq qilish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish;

jarayonning maqbul texnologik parametrlarni o'rnatish bilan MQ YuKFK va konsentrlangan EFK asosida QPSEKPF olishni tadqiq qilish;

MQ YuKFK va konsentrlangan EFK asosida QPSEKPF ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarining maqbul me'yorlarini aniqlash, hamda texnologiyasini ishlab chiqish va aprobatsiya qilish hamda moddiy balansini tuzish;

bug'latilgan EFK va ammiak asosida suvda eruvchan shakldagi P_2O_5 miqdori yuqori bo'lgan QPSEAPF sintezini o'rganish;

QPSEAPF olish texnologik parametrlarning ta'sirini, quyqaning reologik va kimyoviy xossalarini texnologik parametrlarga ta'sirini o'rganish;

MQ fosforitlaridan olingan konsentrlangan EFK asosida QPSEAPF ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarining maqbul me'yorlarini o'rnatish, texnologiyasini ishlab chiqish va aprobatsiya qilish hamda moddiy balansini tuzish;

quyi polimerlangan suvda eruvchan polifosfat o'g'itlarini olishning texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida MQ fosforitidan olingan quyi va yuqori konsentrlangan EFK, YuKFK, gaz holatidagi ammiak, kalsiy polifosfat va ammoniy polifosfat olingan.

Tadqiqotning predmeti: fosforli o'g'itlarni termik degidratatsiyalash texnologiyasini hamda ular asosida kalsiy va ammoniy polifosfatlar olish texnologiyalari ishlab chiqish jarayonidagi kimyoviy xossalarini texnologik parametrlarga ta'sirini o'rganish hamda maqbul texnologik parametrlarni o'rnatishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy va fizik-kimyoviy, shuningdek spektroskopik (rentgenografik, differensial termal tahlil, IQ-spektroskopik, skanerlovchi elektron mikroskopiya) tahlil usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

MQ YuKFKdan olingan konsentrlangan EFK asosida QPSEKPFni olish jarayoniga texnologik omillarning ta'siri aniqlangan;

$R=1,33\div 2,04$ qiymatlarida sintez qilingan monokalsiyfosfat digidratini termik degidratatsiyalash usuli bilan QPSEKPF olish jarayoniga haroratning, degidratatsiyalash davomiyligiga va donalar o'lchamlariga bog'liqligining maqbul sharoitlar aniqlangan;

MQ YuKFKdan olingan 56-60% li EFKni ammiak gazi bilan neytrallash, ammiakni uzatish tezligi ta'sirida P_2O_5 -ning polimerlanish darajasini 47-81% gacha oshirish mumkinligi isbotlangan;

Konsentrlangan EFK, MQning YuKFK va ammiak asosida kalsiy va ammoniy

polifosfatlarini olishning moddiy balanslari va ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uzoq muddatli ta'sir etuvchi polishakldagi ozuqaviy komponent – fosfor tutuvchi QPSEKPF va QPSEAPF larni olish jarayonining maqbul texnologik ko'rsatkichlari aniqlangan;

MQning fosfatli xomashyosidan olingan konsentrlangan EFK, fosforit va gazsimon ammiak bilan ishlov berish orqali, suvda eruvchan polishakldagi ozuqaviy komponentlarni tutuvchi kondensirlangan QPSEKPF va QPSEAPF o'g'itlari olingan;

QPSEKPF va QPSEAPF larini olish texnologiyalari ishlab chiqilgan va ular tajriba-sanoat miqyosida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy kimyoviy tahlillar usullari va fizik-kimyoviy usullari, quyi polimerlangan suvda eruvchan kalsiy va ammoniy polifosfatlarini ishlab chiqarish natijalari, ishlab chiqarish sharoitidagi sanoat sinovlari mutanosibli bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati foskonsentrat, konsentrlangan ekstaksion fosfor kislotasi va gazsimon ammiak asosida kalsiy va ammoniy polifosfatlarni olish uchun maqbul texnologik ko'rsatkichlar, jumladan, datlabki xomashyo komponentlarining konsentratsiyasi, ularning o'zaro nisbati, gazsimon ammiak bilan neytrallash jarayonidagi neytrallanish darajalarining polimerlanish darajasiga ta'siri hamda olingan QPSEKPF va QPSEAPF larining kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalriga bog'liq ravishda o'zgarishi qonunoyatlari aniqlashlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, konsentrlangan EFK, foskonsentrat va gazsimon ammiakni kalsiy va ammoniy polifosfatlarga qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqilganligi va mamlakatning fosforli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, mavjud fosforli xomashyolardan unumli foydalanish, qishloq xo'jaligida yerlarining hosildorligi oshirish, import o'rnini bosuvchi eksportbop mahsulotlar olish hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. MQ YuKFKni konsentrlangan EFK bilan qayta ishlash va yuqori konsentrlangan EFKni gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash, hamda ularni termik degidratatsiyalash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

MQ fosforitlarini konsentrlangan EFK bilan QPSEKPFga qayta ishlash texnologiyasi «Elektrokimyozavod» AJ-QKda amaliyotga joriy etilgan («Elektrokimyozavod» AJ-QKning 2024-yil 30-iyuldagi 74-son ma'lumotnomasi). Natijada $R=1,33-2,04$ nisbatlarining keng oralig'ida MQ fosforitlarini konsentrlangan EFK bilan parchalanishi natijasida olingan kalsiy fosforli o'g'itlarni termik degidratatsiya qilish orqali uzoq muddat davomli ta'sir etuvchi QPSEKPFni ishlab chiqarishni tashkil etish imkonini bergan;

MQ fosforitlaridan olingan konsentrlangan EFK va gazsimon ammiak asosida

yuqori ozuqaviy komponentli QPSEAPFga qayta ishlash texnologiyasi «Elektrokimyozavod» AJ-QKda amaliyotga joriy etilgan («Elektrokimyozavod» AJ-QKning 2024-yil 30-iyuldagi 74-son ma'lumotnomasi). Natijada, MQ YuKFKdan olingan konsentrlangan EFKni gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash yo'li bilan QPSEAPFni ishlab chiqarishni tashkillashtirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotni o'tkazishning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va chop etilgan ilmiy ishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ammoniy va kalsiy polifosfatlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning hozirgi holati**» deb nomlangan **birinchi bobida** kalsiy va ammoniy polifosfatlarning xomashyo bazasi, ularni ishlab chiqarish va qo'llash ko'lamini, uzoq muddat ta'sir etuvchi fosforli o'g'itlarni olishning fizik-kimyoviy asoslari va kalsiy va ammoniy polifosfatlar olish sohasidagi texnologik echimlarni o'rganish holatiga ko'ra patent va ilmiy texnik echimlari haqidagi adabiyot ma'lumotlari ko'rib chiqilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirgan.

Dissertatsiyaning «**Boshlang'ich va oraliq mahsulotlarning xususiyatlari va tadqiqotning fizik-kimyoviy usullari**» nomli **ikkinchi bobi** qo'llanilgan materiallarning xususiyatlari va kimyoviy tahlillar, fizik xususiyatlarini aniqlash, fizik-kimyoviy tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish usullari berilgan.

Dissertatsiyaning «**Markaziy Qizilqum fosforitidan olingan ekstraksiyon fosfor kislotasi asosida kalsiy polifosfatlar sintezi jarayoni tadqiqoti**» nomli **uchunchi bobida** MQ fosforitidan olingan konsentrlangan EFK va uning asosida fosforitni parchalab, ammiak bilan neytrallab olingan fosforli o'g'itni degidratatsiyalab kalsiy polifosfat olishga bag'ishlangan.

Tadqiqotlar uchun MQ YuKFKning quyidagi tarkibidan foydalanildi (og'ir.%): P_2O_5 -28,34; CaO-53,20; CaO: P_2O_5 -1,88; MgO-0,45; Fe_2O_3 -0,39; Al_2O_3 -0,41; SO_3 -3,05; F-2,94 va ushbu xomashyodan olingan EFK tarkibi (og'ir.%): P_2O_5 -21,6; CaO-

0,21; MgO-0,41; Fe₂O₃-0,37; Al₂O₃-0,43; SO₃-2,00; F-1,30. YuKFK EFk bilan 80°C da 60 daqiqa davomida parchalandi.

Polifosfat shakldagi o'g'itlarini ishlab chiqarish yuqori konsentrlangan EFkni talab qiladi. Buning uchun EFk 40,6-58,5 % P₂O₅ gacha bug'latildi. P₂O_{5EFK} i P₂O_{5FX} og'irlik yig'indisining fosforit va EFk (R) tarkibidagi kalsiy, magniy, temir, alyuminiy oksidlarining yig'indisiga nisbati 1,33 dan 2,04 gacha o'zgarib turadi, P₂O_{5 EFK} : P₂O_{5 FX} = 2,15 - 4,50 nisbatlariga mos keladi. R qiymati quyidagi formula yordamida hisoblangan: $R = \frac{\sum(P_{2O_5\text{ EFK}} / P_{2O_5\text{ FX}})}{\sum[(CaO, MgO, R_2O_3\text{ EFK} + CaO, MgO, R_2O_3\text{ FX})]}$. Olingan o'g'itlarning kimyoviy tarkibi, P₂O_{5 EFK} : P₂O_{5 FX} yoki R nisbatiga qarab, 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fosforli o'g'itlarning kimyoviy tarkibiga P₂O_{5EFK}:P₂O_{5FX} nisbatining ta'siri

№	$\frac{P_{2O_5\text{ EFK}}}{P_{2O_5\text{ FX}}}$	R	pH ammonizatsiyagacha	Kimyoviy tarkibi, og'ir, %				
				P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ o'zl.	P ₂ O ₅ suv.	$\frac{P_{2O_5\text{ y3l}}}{P_{2O_5\text{ ymym}}}$	$\frac{P_{2O_5\text{ cy6}}}{P_{2O_5\text{ ymym}}}$
1	2,15	1,33	1,80	36,42	26,07	14,13	71,58	38,80
2	2,85	1,56	1,67	39,77	32,65	17,18	82,09	43,20
3	3,65	1,80	1,53	44,16	37,59	26,57	85,13	60,17
4	4,00	1,90	1,48	45,19	39,37	28,84	87,12	63,82
5	4,50	2,04	1,45	45,59	40,82	31,87	87,62	68,41

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, P₂O_{5 EFK} : P₂O_{5 FS} nisbati 2,15 dan 4,5 gacha yoki R 1,33 dan 2,04 gacha ko'tarilishi bilan P₂O_{5 umum.} miqdori 36,42% dan 45,59 % gacha, P₂O_{5 o'zl.} 26,07 % dan 40,82 % gacha va P₂O_{5 suv.} 14,13 % dan 31,87 % gacha ortadi. Shu bilan birga, o'zlashuvchan shakldagi P₂O₅ 71,58 % dan 87,62 % gacha, suvda eruvchan shakli 38,8 % dan 68,41 % gacha oshadi.

Amoniydagi fosforli o'g'itlar 60 daqiqa davomida 150 - 300 °C haroratda termik degidratatsiyalanadi. Degidratlash uchun donalar o'lchami -4 dan +3 gacha, -3 dan +2 gacha, -2 dan +1 mm gacha bo'lgan o'g'itlar namunalari tanlangan. Olingan o'g'itlarning kimyoviy tarkibi P₂O_{5 EFK} : P₂O_{5 FX} yoki R nisbatiga qarab, 2-va 3-jadvallarda keltirilgan.

R ning 1,33 dan 2,04 gacha oshishi bilan jadvallardan ko'rinib turibdiki, P₂O_{5 umum.}, P₂O_{5 o'zl.} va P₂O_{5 suv.} miqdorlari teng qiymatlarda oshib borishi kuzatilgan. Shunday qilib, +3 ÷ -2 mm li fraksiya uchun P₂O_{5 umum.} 38,22 - 40,41 % dan 47,88 - 52,31 % gacha ortadi, P₂O_{5 o'zl.} 19,89 - 25,99 dan 39,02 - 47,15 % gacha, P₂O_{5 suv.} 2,27-12,84 % dan 6,61-20,89 % gacha ortib boradi. R = 2,04 da P₂O_{5 suv.} ko'rsatkichlari ham oshadi va P₂O_{5 o'zl.} ko'rsatkichlari 250°C haroratda 39,37 % dan 47,15 % gacha ko'tariladi. P₂O_{5 suv.} ko'rsatkichlari R ning barcha qiymatlari uchun harorat oshishi bilan kamayadi. P₂O_{5 umum.}, P₂O_{5 o'zl.} va P₂O_{5 suv.} ko'rsatkichlari o'g'itlarning qolgan fraksiyalari uchun R va haroratning oshishi bilan xuddi shunday tarzda o'zgarib boradi. R = 1,33 da -3 ÷ +2 mm fraksiya uchun harorat oshishi bilan P₂O₅ ning o'zlashuvchan orto shakldagi ulushi 150°C haroratda 35,87% dan 7,45 % gacha kamayadi, P₂O₅ ning o'zlashuvchan polishakldagi ulushi 250°C haroratda 32,13 % dan 50,59 % gacha oshadi va 300°C haroratda esa 41,77 % gacha kamayadi. Bunday sharoitda suvda eruvchan P₂O₅ ulushi 33,6 % dan 5,62 % gacha kamayadi.

R ning 1,56 gacha ko'tarilishi bilan o'zlashuvchan poli shaklining ulushi $-3 \div +2$ mm li fraksiya uchun 150°C da 37,48 % dan 250°C haroratlarda 54,49 % gacha oshadi va 300°C haroratda termik ishlov berishda 46,29 % gacha kamayadi.

2-jadval

$\text{P}_2\text{O}_5_{\text{EFK}} : \text{P}_2\text{O}_5_{\text{FX}} = 3,65$ ($R = 1,33$) nisbatda degidratlangan kalsiy fosfatlarining kimyoviy tarkibiga donalar o'lchami, kuydirish haroratlari va $\text{P}_2\text{O}_5_{\text{EFK}} : \text{P}_2\text{O}_5_{\text{FX}}$ nisbatining ta'siri

№	t, °C	Donalar o'lchami d, mm	P_2O_5 , og'ir. %				P ₂ O ₅ o' zl. P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ o' zl. orto. P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ o' zl. poli. P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ suv. P ₂ O ₅ umum.	
			umum.	o'zlashuvchan							suv.
				orto+ poli	orto	poli					
1	Dast. mahs.		36,42	26,07	26,07	-	14,13	71,58	71,58	-	38,80
2	150	+1 ÷ -2	38,79	26,46	13,51	12,95	12,54	68,21	34,83	33,38	32,33
3	200		39,32	26,07	6,19	19,88	6,98	66,30	15,74	50,56	17,75
4	250		40,07	25,42	3,71	21,71	2,69	63,44	9,26	54,18	6,71
5	300		41,21	21,08	2,83	18,25	1,98	51,15	6,87	44,28	4,80
6	150	+2 ÷ -3	38,22	25,99	13,71	12,28	12,84	68,00	35,87	32,13	33,60
7	200		38,90	25,65	6,66	18,99	7,42	65,94	17,12	48,82	19,07
8	250		39,73	24,98	4,88	20,10	3,06	62,88	12,28	50,59	7,70
9	300		40,41	19,89	3,01	16,88	2,27	49,22	7,45	41,77	5,62
10	150	+3 ÷ -4	37,84	25,56	14,16	11,40	13,02	67,55	37,42	30,13	34,41
11	200		38,25	24,13	7,38	16,75	8,01	63,08	19,29	43,79	20,94
12	250		39,46	24,31	4,63	19,68	3,64	61,61	11,73	49,87	9,22
13	300		40,07	19,65	3,94	15,71	2,95	49,04	9,83	39,21	7,36


3-jadval

$\text{P}_2\text{O}_5_{\text{EFK}} : \text{P}_2\text{O}_5_{\text{FX}} = 4,5$ ($R = 2,04$) nisbatda degidratlangan kalsiy fosfatlarining kimyoviy tarkibiga donalar o'lchami, kuydirish haroratlari va $\text{P}_2\text{O}_5_{\text{EFK}} : \text{P}_2\text{O}_5_{\text{FX}}$ nisbatining ta'siri


№	t, °C	Donalar o'lchami d, mm	P_2O_5 , og'ir. %				P ₂ O ₅ o' zl. P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ o' zl. orto. P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ o' zl. poli. P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ suv. P ₂ O ₅ umum.	
			umum.	o'zlashuvchan							suv.
				orto+ poli	orto	poli					
1	Dast. mahs.		46,59	40,82	40,82	-	31,87	87,62	87,62	-	68,41
2	150	+1 ÷ -2	48,58	43,07	21,77	21,30	20,10	88,65	44,81	43,84	41,37
3	200		49,30	44,50	12,18	32,32	9,48	90,26	24,70	65,56	19,23
4	250		52,63	51,10	10,61	40,49	6,37	97,09	20,16	76,93	12,10
5	300		53,72	41,58	8,31	33,27	5,78	77,40	15,47	61,93	10,76
6	150	+2 ÷ -3	47,88	39,37	19,50	19,87	20,89	82,23	40,73	41,50	43,63
7	200		48,39	41,66	12,49	29,17	10,88	86,09	25,86	60,28	22,48
8	250		50,90	47,15	13,47	33,68	8,03	92,63	26,46	66,17	15,78
9	300		52,31	39,02	8,75	30,27	6,61	74,59	16,73	57,87	12,64
10	150	+3 ÷ -4	47,24	38,51	19,45	19,06	22,06	81,52	41,17	40,35	46,70
11	200		47,82	39,80	15,11	24,69	12,10	83,23	31,58	51,60	25,30
12	250		49,61	44,45	12,61	31,84	8,57	89,59	25,42	64,18	17,28
13	300		50,90	35,99	12,28	23,71	7,90	70,70	24,13	46,58	15,52

Shunga o'xshash holat $-3 \div +2$ mm fraksiya uchun $R = 1,90$ va $2,04$ da kuzatiladi. Fraksiyalar o'lchamining $-2 \div +1$ dan $-3 \div +2$ gacha va $-4 \div +3$ hamda R oshishi bilan P_2O_5 umum. miqdorida biroz pasayishi va P_2O_5 suv. ulushi ortishi kuzatildi. Qolgan qonuniyatlar amalda o'zgarishsiz qoladi.

Kuydirish haroratining turli o'zlashuvchan shakldagi kalsiy fosfatlari tarkibiga ta'siri o'rganildi. 1- va 2-raslarda $P_2O_{5EFK} : P_2O_{5FX}$ nisbatlari va kuydirish haroratlarining fosforning umumiy va o'zlashuvchan shaklidagi miqdorlariga, shuningdek kalsiy polifosfatidagi o'zlashuvchan orto- va polifosfatlar tarkibiga ta'siri ko'rsatilgan.



1-rasm. O'zlashuvchan ortofosfatlar shakllari miqdoriga P_2O_{5EFK}/P_2O_{5FX} va kuydirish haroratlarining ta'siri



2-rasm. O'zlashuvchan polifosfatlar shakllari miqdoriga P_2O_{5EFK}/P_2O_{5FX} va kuydirish haroratlarining ta'siri

1-rasmda $P_2O_{5EFK} : P_2O_{5FX}$ nisbati va KPF tarkibidagi o'zlashuvchan fosfatlarning turli o'zgarishsiz shakllarini kuydirish haroratlarini kuydirish haroratining ta'siri natijalari ko'rsatilgan. Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, o'zlashuvchan ortofosfat shakllari kuydirish harorati ortishi bilan birinchi navbatda keskin – o'rtacha 2 marta (harorat 200°C gacha ko'tarilishi bilan), keyin esa bir me'yorda, o'rtacha 30% ga kamayadi, haroratning 200 dan 250°C gacha ko'tarilishi bilan va harorat 250 dan 300°C gacha ko'tarilganda 15% ga kamayadi. Ortofosfatlar miqdorining kamayishi ularning polifosfatlarga aylanishi bilan izohlanadi. Kuydirish haroratlari va $P_2O_{5EFK} : P_2O_{5FX}$ nisbatlarining polifosfat (2-rasm) tarkibiga ta'siri haroratning 150 dan 200°C gacha ko'tarilishi bilan o'zlashadigan P_2O_5 poli shakllarining tarkibi $P_2O_{5EFK} : P_2O_{5FX}$ nisbatidan qat'iy nazar o'rtacha 77-91 % gacha oshadi.

$P_2O_{5EFK} : P_2O_{5FX} = 1,33$ da olingan QSEKPF da haroratning 250°C gacha ko'tarilishi bilan o'zlashuvchan P_2O_5 poli shaklining miqdori $\sim 5\%$ kamayadi va yuqori nisbatlarda – kuydirish harorati 200°C solishtirganda 5-10 % ga oshadi. Harorat 300°C ga etganda, P_2O_5 ning o'zlashadigan poli shakli miqdori o'rtacha 10-20 % ga kamayadi. Fosforning o'zlashmaydigan shakli miqdorining pasayishi o'zlashuvchan polifosfatlarning o'zlashmaydigan metafosfatlarga o'tish tufayli yuzaga keladi.

Shunday qilib, P_2O_5 o'zlashadigan poli shaklining maksimal miqdori bilan maqbul kuydirish harorati $230-260^\circ\text{C}$ deb hisoblash mumkin. $P_2O_{5EFK} : P_2O_{5FX} = 3,65$ og'irlik nisbatlarida olingan ammoniylashgan, donador

fosforli o'g'itlarning kimyoviy tarkibiga kuydirish davomiyligining ta'siri 200, 240 va 260 °C haroratlarda o'rganildi, eksperimental ma'lumotlarning natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval


Mahsulotdagi P₂O₅ turli shakllariga kuydirish jarayoni davomiyligi va haroratlarining ta'siri

Kuydirish vaqti, daq.	Polifosfatdagi P ₂ O ₅ miqdori, og'ir. %				P ₂ O ₅ o'zl.	P ₂ O ₅ suv.	γ poli,%
	P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ o'zl.	P ₂ O ₅ suv.	P ₂ O ₅ poli.	P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ umum.	
Dastlabki	43,70	35,80	28,83	-	81,90	65,9	-
200 °C haroratda							
20	44,12	36,26	19,16	82,16	43,42	38,74	38,77
40	45,19	37,56	11,54	83,12	25,54	57,58	57,58
60	46,63	39,89	10,38	85,55	22,26	63,29	63,32
90	46,97	40,41	8,79	86,00	18,72	67,28	67,37
120	47,22	41,23	8,27	87,31	17,51	70,70	69,68
240 °C haroratda							
20	46,31	38,22	16,77	82,53	36,21	46,32	46,40
40	46,93	39,28	10,92	83,70	23,27	60,43	60,40
60	48,09	41,31	7,80	85,90	16,22	69,68	69,70
90	48,78	42,33	5,89	86,78	12,07	74,71	74,68
120	49,21	43,16	4,58	87,71	9,31	78,40	78,38
260 °C haroratda							
20	48,53	40,28	11,79	83,00	24,29	58,71	58,80
40	48,91	41,22	9,34	84,28	19,10	65,18	65,20
60	49,14	42,31	6,19	86,10	12,60	73,50	73,60
90	50,11	41,89	4,85	83,60	9,68	73,92	73,90
120	51,19	42,06	3,49	82,16	6,82	75,34	75,40


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 200 °C va 240 °C haroratlarda degidratatsiya jarayonida P₂O₅ ning umumiy o'zlashuvchan shakllari 40 daqiqagacha davom etganda nisbatan tez ortadi va davomiylikning yanada ortishiga bilan kam miqdorda oshishiga olib keladi. Xuddi shunga teng sharoitlarda va 40 daqiqagacha davom etadigan oraliqlarda P₂O₅ ning suvda eruvchan shaklining miqdori keskin kamayadi va davomiylikning yanada oshishi esa P₂O₅ ning suvda eruvchan shaklining sezilarli darajada pasayishiga olib kelmaydi.

Kuydirish harorati 260°C bo'lganida, kuydirish davomiyligi oshishi bilan mahsulotdagi P₂O₅ ning umumiy shaklining miqdori asta-sekin o'sib boradi va P₂O₅ ning umumiy o'zlashuvchan shakli 60 daqiqa davomida maksimal darajadan o'tadi. P₂O₅ ning suvda eruvchan shakli 60 daqiqagacha 28 % dan 5 % gacha, 60 daqiqadan 120 daqiqagacha esa 5 dan 3,5 % gacha kamayadi. O'tkazilgan tadqiqotlar MQ fosforitlari asosidagi ortofosfatlardan KPF olish imkoniyatini ko'rsatdi. Buning uchun P₂O₅ ning o'zlashuvchan shakllarining yuqori miqdorini olish uchun P₂O₅ EFK : P₂O₅ FX nisbati kamida 3,5 bo'lgan kalsiy ortofosfatlar va kalsiy ammoniydan foydalanish yaxshiroqdir. QPSEKPFFlarni olish uchun degidratatsiya jarayoni 230-260°C haroratda 40-60 daqiqa davomida amalga oshirilishi kerak. Bunday sharoitda P₂O₅ ning umumiy miqdori 49,83%, umumiy o'zlashuvchan shakli - 87,0 %, polimerlanish darajasi esa - 68,88 %.

Olingan KPF (R = 1,80) ning minerologik va kimyoviy tarkibini aniqlash uchun namunalarning rentgenogramma, IQ-spektroskopiya va energiodispersion mikroskopik tahlil usullari amalga oshirildi (3 va 4-rasm).



3-rasm. Kalsiy polifosfat rentgenogrammasi




4-rasm. Kalsiy polifosfat IQ-spektri (EFK:F/X = 3,65)

Rentgenogramma difraksiyon choʻqqilari (3-rasm) faqat tekisliklararo masofalarda kalsiy difosfatlar ($\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$) ga xos boʻlgan - 5,70; 4,80; 3,71; 3,38; 3,30 Å va ammoniy polifosfatlar ($(\text{NH}_4)_3\text{HP}_2\text{O}_7$ i $(\text{NH}_4)_3\text{HP}_2\text{O}_7$) - 4,5716; 4,27 Å, monoammoniyfosfat ($\text{NH}_4\text{N}_2\text{PO}_4$) - 5,32; 3,75 Å, temirli lazulit $(\text{Mg,Fe})\text{Al}_2(\text{PO}_4)_2(\text{OH})_2$ - 3,20 Å, parchalanmagan fosforit - 2,90; 2,27 Å, kvarts - 1,88; 1,82 Å, shuningdek $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ va CaF_2 - 2,88, 2,68 va 1,65 Å difraksiyon choʻqqilari mavjud.

PO_2 guruhlarining simmetrik tebranish chastotalari hududida (4-rasm) 1078,21-1209,37 cm^{-1} chizigʻi ustunlik qiladi, bu birikma anionning uzun zanjirli tuzilishini koʻrsatadi. Uzunzanjirli hududda RO_2 guruhlarining yutilishi, shuningdek, yutilish intensivligining oʻzgarishi kationlarning tabiati va anionning polimerlanish darajasining taʼsirini aks ettiradi. KPFning energiya dispersion tahlili quyidagi elementlarning miqdorini koʻrsatdi: N-3,02%; O-51,07%, F-1,58%; Na-0,23%; Mg-0,73%; Al-0,64%; Si-0,32%; P-21,96%; S-1,88%; Ca-17,86%; Fe-0,71%, bu KPF tarkibiga mos keladi. Rentgenogramma difraksiyon choʻqqilari (3-rasm) faqat tekisliklararo masofalarda kalsiy difosfatlar ($\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$) ga xos boʻlgan - 5,70; 4,80; 3,71; 3,38; 3,30 Å va ammoniy polifosfatlar ($(\text{NH}_4)_3\text{HP}_2\text{O}_7$ va $(\text{NH}_4)_3\text{HP}_2\text{O}_7$) - 4,5716; 4,27 Å, monoammoniyfosfat ($\text{NH}_4\text{N}_2\text{PO}_4$) - 5,32; 3,75 Å, temirli lazulit $(\text{Mg, Fe})\text{Al}_2(\text{PO}_4)_2(\text{OH})_2$ - 3,20 Å, parchalanmagan fosforit - 2,90; 2,27 Å, kvarts - 1,88; 1,82 Å, shuningdek $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ va CaF_2 - 2,88, 2,68 va 1,65 Å difraksiyon choʻqqilari mavjud.

MQ bugʻlatilgan yuqori konsentrlangan EFK va fosfat xomashyosidan KPF ishlab chiqarish prinsiplar texnologik sxemasi ishlab chiqilgan (5-rasm).

Ishlab chiqilgan texnologiya «Elektrokimyozavod» AJ-QK da sinovdan oʻtkazildi, natijada R = 2,04 da olingan kalsiy polifosfat quyidagi kimyoviy tarkibga ega (ogʻir: %): P_2O_5 umum - 50,89 %, P_2O_5 umum. oʻzi - 92,67 %, P_2O_5 umum. suv - 15,8 %, γ polimer. - 66,20 %.



5-rasm. MQ bug‘latilgan EFKsi va YuKFKdan QPSEKPF olishning prinsipial texnologik sxemasi: 1, 6, 20, 23 - sig‘imli idishlar; 2, 7, 21 - nasoslar; 3 - bosimli bak; 4 - yoqilg‘i; 5 - barbotajlibug‘latish qurilmasi; 8 – sarf o‘lchagich; 9 - bunker; 10 - shnekli ta‘minlagich; 11 - 4lik aralastirgich; 12 - shnekli aralastirgich; 13 - ammoniator; 14 - kuydirish barabani; 15 - klassifikator; 16 - maydalagich; 17 - siklon; 18 - tomchi ushlagich; 19 - absorber; 22 - kondensatsiya minorasi; 24 - sovitish; 25 - tomchi ushlagichli Ventura skrubberi

Suvda eruvchan KPFlar suv bilan uzoq muddatli gidrolizlanish jarayonida ozuqaviy komponentlar P_2O_5 va CaO ning uzoq muddatli ta‘siri tufayli yuqori agrokimyoviy samaradorlik va oziqa moddalarning foydali ish koeffitsientini namoyish etadi. Dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitob natijalari shuni ko‘rsatadiki, 10 ming tonna KPF tejalsa, umumiy iqtisodiy samaradorlik 23 920,42 mln. so‘mni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Markaziy Qizilqum fosforitlaridan olingan ekstraksiyon fosfor kislotasi asosida ammoniy polifosfatlarni sintez qilish jarayonining tadqiqoti va ularning texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida MQ fosforitlarining konsentrlangan EFKsi asosida APF olishga bag‘ishlangan.

MQ fosforitlaridan olingan bug‘latilgan EFKni gazzimon ammiak bilan neytrallash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Ammonizatsiya jarayonining kirish va chiqish parametrlarining o‘zaro bog‘likligini aniqlash uchun dastlabki EFKning boshlang‘ich harorati ($80^{\circ}C$) o‘zgarmagan holda vaqt o‘tishi bilan reaksiya massasi haroratining o‘zgarishiga ammiak etkazib berish tezligining ta‘siri bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. Bunday holda, belgilangan shartlar uchun muhit haroratining maksimal qiymatiga vaqt va APF suyuqlanmasining ma‘lum bir pH qiymatini ta‘minlaydigan jarayonning umumiy davomiyligi (4-jadval) qayd etilgan.

4-jadval

Bug'latilgan EFKni ammiak bilan neytrallash jarayoni ko'rsatkichlari

№	Ammiak sarfi, $V \cdot 10^5$ m^3/s	Ammonizatsiya davomiyligi, τ , daqiqa	Berilgan ammiak miqdori, g	pH	Maksimal erishiladigan haroratlar, t_{max} °C
Bug'latilgan EFK konsentratsiyasi – 56,4% P_2O_5					
1	6,00	790	33,90	3,30	165
2	7,80	390	20,15	3,30	190
3	10,0	180	13,40	2,90	220
4	12,60	140	12,60	2,80	230
Bug'latilgan EFK konsentratsiyasi – 60,35% P_2O_5					
5	6,00	730	31,00	2,80	200
6	7,80	290	18,05	2,80	240
7	10,0	170	13,20	2,80	240
8	12,60	140	11,30	2,70	240

4-jadvaldagi ma'lumotlardan kelib chiqadiki, reaktorda NH_3 sarfi $6,0 \cdot 10^{-5} m^3/s$ bo'lganda, muhit harorati konsentratsiyasi 56,4-60,35 % P_2O_5 bo'lgan kislotalar uchun 80 dan 165-200°C gacha ko'tariladi. NH_3 sarfining tezligi $10,0 \cdot 10^{-5} m^3/s$ gacha oshgani sayin, pH ga erishish vaqti 790 dan 140 sekundgacha kamayadi.

